

Mobil ilova tizimi orqali mijozlarga – jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun ommaviy oferta shartnomasi

Ushbu bilan, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” Mas’uliyati cheklangan jamiyat (bundan buyon shartnoma matnida “Markaz” deb yuritiladi), jismoniy va yuridik shaxslarga (bundan buyon shartnoma matnida “Mijoz” deb yuritiladi) mobil ilova tizimi orqali mijozlarga – jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun ommaviy oferta shartnomasi (bundan buyon shartnoma matnida “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzishni taklif qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 367-modda, 369-modda 2-qism, va 370-moddasiga asosan quyida keltirilgan shartlarni va xizmat to'lovlarini qabul qiladigan xamda ushbu ofertani aksept qilayotgan jismoniy va yuridik shaxs Mijozga, Mijoz va Markaz esa birgalikda – Shartnoma Taraflariga aylanadi.

Jismoniy va yuridik shaxs ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarni tasdiqlangan kundan boshlab Shartnoma hech qanday o'zgartirishlarsiz va cheklovlarsiz kuchga kirgan hisoblanadi.

Ilovadan foydalanishni boshlashdan avval ushbu Shartnomaning matni bilan to'liq tanishib chiqish talab etiladi. Shartnoma shartlariga to'liq yoki uning biror qismiga qo'shilmaslik holatlarida mobil ilovadan foydalanishdan o'zingizni cheklab turish talab etiladi.

1. Asosiy tushuncha va atamalar

1.1. Shartnomada quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

Aksept - ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Ofertani akseptlash shartnoma tuzilganligini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega;

Mijoz - ofertani qabul qilgan va shu tariqa oferta shartnomasi bo'yicha markaz xizmatlarining buyurtmachisi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Avtorizatsiya - muayyan shaxsga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini berish, shuningdek, ushbu harakatlarni amalga oshirishga urinishda ushbu huquqlarni tekshirish (tasdiqlash) jarayoni.

"TITM" mobil ilovasi - mobil texnologiyalar negizida yaratilgan maxsus dasturiy ta'minot bo'lib, onlayn rejimida markaz xizmatlaridan foydalanish, foydalanilgan xizmatlar to'g'risida ma'lumotlarni olish va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lish shuningdek Markazning funksional mobil ilovasida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun mo'ljallanadi.

Tizim - bu Markaz xizmatlari ko'rsatish sohasidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qidirish, qayta ishlash va ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan Markazning dasturiy to'plami.

Masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi - elektron xizmatlardan foydalanish uchun to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlaydigan telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot va uskunalar majmuasi;

Veb sayt - Markazning Internetdagi rasmiy veb-sayti www.titm.uz

Parol - Mijozni tasdiqlash uchun mo'ljallangan maxfiy so'zi yoki belgilar to'plami.

Login - mobil telefon raqam orqali mobil ilovaga ulanish yoki kirish haqida so'ralganda Mijozning identifikatori.

Kontakt sentr - Markazning 71 202-05-01 telefon raqami orqali Mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatish markazi.

Biometrik identifikatsiya - bu shaxslarni aniqlash va autentifikatsiya qilish bo'yicha so'rovlarni qayta ishlashga imkon beradigan axborot tizimi.

Identifikatsiya - jismoniy shaxs uchun uni identifikatsiya qilish, ma'lumotlarini aniqlaydigan, uni axborot tizimida aniq belgilaydigan jarayonlar;

2. Shartnoma predmeti.

2.1. Markaz ushbu shartnomaga muvofiq mobil ilovadan foydalangan holda, Mijozlarga xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, foydalanilgan xizmatlar to'g'risida ma'lumotlarni olish va funksional ilovada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

3. Mijozga Markaz xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlari.

3.1. Xizmatlardan mobil ilova orqali foydalanish uchun Mijoz "Android" operatsion tizimiga ega mobil telefoniga, SMS-xabar xizmatiga ulangan O'zbekiston Respublikasi uyali aloqa operatorining amaldagi raqamiga yoki shaxsiy elektron pochta manziliga ega bo'lishi kerak.

3.2. Tizimdan foydalanish uchun mijoz Play Market yoki App Store dan mobil ilovani yuklab olish orqali o'rnatishi lozim.

Mijoz mobil ilova tizimida biometrik identifikatsiyadan o'tadi.

3.3. Mijoz mobil ilova tizimida biometrik identifikatsiyadan o'tganda quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi:

3.3.1. Vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga so'rov yuborish yo'li bilan olingan shaxsiy ma'lumotlar:

raqamli fotosurat;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR);

pasport seriyasi va raqami;

tug'ilgan kuni;

pasport berilgan sana;

pasportning amal qilish muddati;

familiyasi, ismi, otasining ismi davlat tilida (lotincha);

ingliz tilidagi familiyasi, ismi;

jinsi;

pasport berilgan joy;

tug'ilgan mamlakati;

tug'ilgan joyi;

millati;

fuqaroligi;

yashash joyida ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi ma'lumotlar;

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR);

haydovchilik guvohnomasi seriyasi va raqami;

haydovchilik guvohnomasining berilgan sanasi;

haydovchilik guvohnomasining amal qilish muddati;

haydovchilik guvohnomasini berilgan tashkilot nomi;

haydovchilik guvohnomasida keltirilgan toifalar;

3.3.2. Jismoniy shaxsni identifikatsiya/autentifikatsiya qilish jarayonida hamkor tizimga avtomatik tarzda uzatiladigan ma'lumotlar:

Jismoniy shaxs mobil qurilmadan foydalanganda- mobil qurilmaning modeli, operatsion tizim versiyasi, mobil qurilmaning noyob identifikatorlari va mobil ma'lumotlar tarmog'idagi ma'lumotlar kabi mobil qurilma haqidagi ma'lumotlar;

Amalga oshirilgan harakatlarning ma'lumotlari va holati (sanasi, vaqti, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz va boshqalar), shuningdek, identifikatsiya / autentifikatsiya qilish bo'yicha shaxsning harakatlari bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar.

3.4. Mijoz mobil ilovada ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirishi mumkin.

3.5. Tizimda yangi xizmatlarni joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar Markaz www.titm.uz veb-saytida e'lon qilinadi

3.6. Xizmat "Android" operatsion tizimi uchun mobil ilova sifatida mavjud bo'lgan "TITM" mobil ilovasi doirasida ishlaydi.

3.7. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tishda Mijoz telefon raqamini kiritadi.

Mobil ilovada muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgandan so'ng Mijozga elektron hisob ochiladi.

Markaz tomonidan Shartnoma doirasida xizmatlar ko'rsatish 24 soat davomida amalga oshiriladi

4. Shartnomani akseptlash tartibi.

4.1. Ushbu Ofertaning aksepti Mijozning "TITM" mobil ilovasida ro'yxatdan o'tishi bilan Shartnoma shartlariga o'z roziligini anglatadi. Shartnoma tizimda ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi.

4.2. Ushbu Ofertaning Mijoz tomonidan qabul qilinishi, mobil ilovani birinchi marta ishga tushirilgandan so'ng "rozilik" tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

4.3. Mijoz Shartnoma shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, mobil ilova orqali masofadan turib Markaz xizmatlaridan foydalana olmaydi.

4.4. Mijoz Login va Parolni kiritishi Mijozni tizimda muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tkazish tartibining natijasidir. Mijoz Login va Parolni sir saqlashi va ularni boshqa shaxslarga oshkor etmasligini ta'minlashi shart. Mijoz maxfiy avtorizatsiya qilish tizimi tomonidan ishlatiladigan parol, maxfiy so'z va SMS xabarlarini saqlash majburiyatini oladi.

4.5. Tomonlar quyidagilarni tasdiqlaydilar va qabul qiladilar:

Markaz Mijoz tomonidan tizimdan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lovlarning mazmuni va/yoki bajarilishining to'g'riligi uchun javobgar emas;

Agar Mijoz tomonidan to'lov rekvizitlari to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa, Markaz to'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan to'lovlarni qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

5. Markazning huquq va majburiyatlari.

5.1. Markaz quyidagi huquqlarga ega:

Markaz tariflariga hamda shartnomaga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga. Agar Mijoz o'zgartirish va qo'shimchalarga rozi bo'lmasa tizimdagi akkauntini o'chirish orqali shartnomani bekor qilishga haqlidir;

Mijozning hisobi orqali shubhali amaliyot o'tkazilganligi aniqlanganida, Mijozga xizmat ko'rsatishni vaqtinchalik to'xtatib turish hamda ushbu holat bo'yicha Mijozning telefon raqamiga SMS-xabar yuborish orqali ogoxlantirish;

Markaz qonun hujjatlariga va ushbu shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.2. Markazning majburiyatlari:

Shaxsga doir ma'lumotlarning butligini va yaxlitligini ta'minlab berish, shaxsga doir ma'lumotlarning qonunga xilof tarzda qayta ishlanishining oldini olishni ta'minlab beruvchi huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni amalga oshirish;

tizimdagi mijozlar hisoblarining holati to'g'risida mobil ilovada ma'lumot taqdim etilishini ta'minlash;

Mijoz tomonidan tizim orqali yuborilgan to'lov hujjatlarining asl nusxalarini talab qilmaslik.

6. Mijozning huquq va majburiyatlari.

6.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

Markaz tomonidan taklif etilayotgan xizmatlariga ulanish;

Markazning Kontakt center markazida yoki Markazning ofisida masofaviy markaz xizmatlari bo'yicha maslahat olish;

6.2. Mijoz majburiyatlari:

Tizimda xizmatlardan foydalanish jarayonida shaxsga doir barcha ma'lumotlarni to'g'ri kiritish;

Mobil ilovada shaxsan o'zi operatsiyalarni amalga oshirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiqligini ta'minlash;

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va tizim orqali operatsiyalarni amalga oshirishda ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilikka to'liq rioya qilish;

Uchinchi shaxslarga avtorizatsiya qilish uchun yuborilgan SMS-xabarlarini, parolni va maxfiy so'zni yubormaslik;

Mobil qurilma, mobil telefon raqami yo'qolgan yoki beruxsat boshqa shaxsning mobil ilovasiga kirishidan shubha qilingan taqdirda, +998 71 202 05 01 raqami orqali xabardor qilish majburiyatini oladi. Shu bilan birga, Markaz yuqoridagi voqealar natijasida mijozga yetkazilgan zararlari uchun javobgar emas.

7. Tomonlarning javobgarligi.

7.1. Tomonlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Tomonlar axborotning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash uchun javobgardirlar.

7.3. Mijoz mobil ilovadan foydalangan holda (Login, parol, SMS-kod) bajarilgan barcha amaliyotlar uchun mustaqil ravishda javobgardir.

7.4. Masofaviy xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ishtirok etayotgan uchinchi shaxslarning aybi bo'lgan taqdirda, Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

7.5. Mijoz o'z shaxsiy ma'lumotlarini himoyalanganmagan ulanishlardan foydalanuvchi yoki zarar yetkazuvchi dasturlar va ilovalar xavfi bo'lgan qurilmaga kiritishda ularning saqlanishi uchun to'liq javobgar bo'ladi.

7.6. Markaz quyidagi holatlarda Mijoz oldida javobgar hisoblanmaydi:

hisob va/yoki uning amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumotlar Mijozning aybi bilan uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lganda;

mobil ilovadan foydalangan holda Mijoz tomonidan noto'g'ri to'lov amalga oshirilganda;

Markazga bog'liq bo'lmagan holatlar uchun tizimga kirishni ta'minlash imkoni bo'lmaganda;

tizimda Mijozning o'z vaqtida yoki noto'g'ri xatti-harakatlari uchun, agar ular noto'g'ri ma'lumotlar kiritilsa va/yoki Mijozning shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida Markazni o'z vaqtida xabardor qilmaganda;

Mijoz tomonidan login, parol, SMS-kod va boshqa ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilish natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlari uchun;

aloqa liniyalarining sifati va texnik holati uchun;

SMS-xabarlarini kechiktirish, yetkazib bermaslik yoki internet tizimlarida kechikish, muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin bo'lgan uyali aloqa operatorlari tarmoqlarida va internet-provayderlar xizmatlarida yuzaga keladigan kechikish va nosozlik uchun;

Mijozning texnik vositalariga zararli viruslarni yuqtirish, hamda Mijozning texnik vositalarining ishlamay qolishi natijasida yetkazilgan zarar uchun;

qonunchilikdagi o'zgarishlar tufayli shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun Markaz tomonidan majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lib qolganda;

tizimdan foydalanish jarayonida mijozning hisobvarag'idagi operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Markazning aybisiz uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lganda.

8. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish.

8.1. Markaz Mijozning shaxsiga oid ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov beradi va/yoki ishlov berishi mumkin:

Mijoz bo'lgan manfaatdor shaxs bilan shartnomalarni tuzish va bajarishda;

Mijoz huquq va majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirilishini ta'minlashda;

Xamkor tashkilotlariga topshirishda;

Yangi xizmatlarni taklif etishda, muayyan xizmatning samaradorligini baholash uchun marketing izlanishlarini o'tkazish, tahliliy yoki statistik ma'lumotlarni tayyorlash va umumlashtirishda.

9. Fors-Major holatlari.

9.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu vaziyat shartnoma tuzilgandan keyin, tomonlar oldindan ko'ra olmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etish mumkin bo'lmagan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlari hisoblansa javobgarlikdan ozod etiladi.

9.2. Fors-major holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, ommaviy tartibsizliklar, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlar kiradi.

Tomonlarning fors-major holatlariga, shuningdek, aloqa xizmatlarini yetkazib beruvchi korxonalarining harakatlari va harakatsizligini o'z ichiga oladi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati, bekor qilish va o'zgartirish tartibi.

10.1. Shartnoma Mijoz tizimda ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi va muddatsizdir.

10.2. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek Markaz tomonidan bekor qilishda Markaz Shartnomani www.titm.uz saytiga va/yoki Markazning

mobil ilovasida yangi nashrda joylashtirish orqali Mijozni kamida o'n kun oldin xabardor qiladi.

10.3. Shartnoma quyidagi hollarda Markaz tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

Markaz tomonidan mobil ilova orqali xizmat ko'rsatishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinganda;

Mijoz tomonidan shartnoma shartlarini va Markaz xizmatlarini mobil ilova orqali taqdim etish shartlarini buzilganda;

Amaldagi qonunchilikka muvofiq olingan terroristik yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etish yoki gumon qilish, shuningdek, Mijozning shubhali operatsiyalari haqida ma'lumot mavjud bo'lganda.

11. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi va boshqa shartlar.

11.1. Tomonlar hujjatlarni elektron shaklda, shu jumladan Ilova orqali to'ldirilgan va tuziladigan hujjatlarni ham oddiy yozma shaklda tuzilgan hujjatlar sifatida tan olishga kelishib oladilar.

11.2. Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar mijoz tomonidan imzolangan qog'oz hujjatlari bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligiga rozilik bildiradi hamda raqamli shaklda tuzilgan hujjat tomonlar o'rtasida nizolarning paydo bo'lishi uchun shart bo'lishi mumkin emas.

11.3. Ushbu shartnomani bajarish masalalari bo'yicha Markaz va Mijoz o'rtasida nizolar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar ularni muzokaralari yo'li bilan hal etish bo'yicha barcha choralarni ko'radi. Nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa mazkur nizolar Markaz joylashgan joydagi fuqarolik ishlari o'yicha sudida ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

11.4. Shartnomada nazarda tutilmagan barcha xolatlar tomonlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

11.5. Mijoz ushbu shartnomani shartlarini qabul qilish orqali Markaz tomonidan belgilangan xizmatlar ko'rsatish tartibi va shartlarini o'rganib chiqqanligini tasdiqlaydi, ularga rozi bo'ladi va ularni o'zi uchun majburiy deb tan oladi.

Shartnomaning amaldagi tahriri mobil ilovada mavjud.